

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI**

KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

5330500 – Kompyuter injiniringi (Kompyuter injiniringi, AT-Servisi)

Himoyaga ruxsat

Kafedra mudiri: dots.Maxmudov Z.M.

_____ «___» _____ 2019 yil

**SAMARQANDGA TASHRIF BUYURUVCHI TURISTLAR UCHUN WEB
XIZMATLAR SAYTINI YARATISH**

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: _____ *406-15 KI(AT) –gr. Nosirov Sh.G'.*

Rahbar: _____ *Ass.Kudratov R.B.*

Taqrizchi: _____ *Dots. Abdurashidov A.*

HFX maslahatchi: _____ *Kat.o'q.Kurbanniyazov A.S.*

SAMARQAND – 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	6
1.1§. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishni o‘ziga xos xususiyatlari va istiqbollari.....	9
1.2§. Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalari o‘rni.....	12
II BOB ZAMONAVIY WEB SAYT YARATISHNING ZAMONAVIY PLATFORMALARI.....	19
2.1§. Web-sayt yaratish bosqichlari.....	20
2.2§. Web-sayt uchun ma'lumotlar bazasini yaratish.....	29
III BOB SAMARQANDGA TASHRIF BUYURUVCHI TURISTLAR UCHUN WEB XIZMATLAR SAYTINI YARATISH.....	40
3.1§. <u>Sanattour.uz</u> web xizmatlar saytini imkoniyatlari.....	42
3.2§. Dastur interfeysi va foydalanuvchi yo‘riqnomasi.....	44
3.3§. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.....	48
XULOSA.....	51
FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR.....	53

KIRISH

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan.

Turizm — iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda.

O'zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishni ta'minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omil bo'lmoqda [1].

O'tgan davr mobaynida davlatimiz rahbari topshiriqlari asosida Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash, yangi sayyohlik yo'nalishlari tashkil etish hamda hududlarning turizm salohiyatini keng targ'ibot qilishga qaratilgan dasturlar qabul qilindi. Jumladan, Buxoro va Samarqand shaharlarida sayyohlar uchun kunu tun faoliyat ko'rsatuvchi, har birining hududi 10 gektardan iborat «Qadimiy Buxoro» va «*Samarkand city*» turizm hududlarini barpo etish bo'yicha ishlar boshlab yuborilgan.

Turizmni rivojlantirishda xorij mamlakatlarida bo'lib o'tadigan sayyohlik ko'rgazma va anjumanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz milliy madaniy merosini chet ellarda ommalashtirish, mamlakatimizga xorijlik sayyohlarni ko'proq jalb qilish va ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz sayyohlik tashkilotlari Madrid, Riga, Berlin, Parij, Tokio, London, Moskva, Istanbul kabi dunyoning yirik shaharlarida qator ko'rgazmalar tashkil etmoqda

yoki xalqaro ko'rgazmalarda qatnashmoqda. Bu, albatta, o'z samarasini berib, xorijiy sayyohlarning yurtimizga oqimi tobora ko'paymoqda[2].

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Ta'kidlab o'tish joyizki turizmning rivojlanishi birinchi navbatda turizm industriyasining o'zagi bo'lgan turxizmatlarning rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Chunki, turxizmatlar turizmning ajralmas qismi bo'lib, birinchi navbatda turistlarni qabul qilib olishdan boshlab, murakkab xizmatlarni amalga oshiruvchi eng muhim bo'lagi hisoblanadi. Shuning uchun ham turizmda nafaqat xizmatlar assortimentini ko'paytirishga, balki ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirishga alohida etibor berilmoqda, shu maqsadda yangi-yangi texnologiyalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ayni paytda O'zbekiston madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Sayyohlarga sayohatga borishdan oldin dam olish vaqtida o'z maqsadiga mo'ljallangan fotosuratlarini ko'rish, mehmonxona bo'yicha tanlovlarni amalga oshirish yoki tarixiy obidalar haqidagi videolarni tamosh aqilishlari va har xil sayohat agentliklarining narxlari bilan taqqoslash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, sayohatchilar tomonidan qo'shilgan marshrutlarni ko'rishni, audio yo'riqnomani yuklab olishni, chiptalarni sotib olishni, onlayn ma'lumotni topishga imkon beradi.

Ishning amaliy ahamiyati. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish talab etiladi:

- turizm sohasini moliyaviy-iqtisodiy tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy qilish.
- mablag' bilan bog'liq barcha xizmat turlarini aniqlash;
- tarmoqni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish;
- mamlakat hududini ilmiy asoslangan holda tumanlarga bo'lish orqali turizmning tabiiy va tarixiy-madaniy salohiyatidan eng maqbul darajada foydalanishni ta'minlash.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida, Samarqandga tashrif buyuruvchi sayyohlarga turxizmatlarini ko'rsatuvchi *sanattour* sayyohlik firmasi hisoblanadi. Bu firma hozirgi kunda sayyohlarga o'ndan ortiq xizmatlarni ko'rsatib kelmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida, axborot tizimini yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar ma'lumotlar bazasi sifatida My SQL, server sifatida Apache va PHP dasturlash tili, CodeIgniter framework vositasi tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ishning matni kompyuterda yozilgan 61 bet hajmidan iborat bo'lib, uning strukturasini kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova tashkil qiladi.

Birinchi bobda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bosqichlari va unda axborot texnologiyalarining o'rni haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Ikkinchi bobda mavzunining asosiy masalasi bo'lgan web sayt yaratish bosqichlari bilan tanishtirib o'tiladi. Bundan tashqari web-sayt uchun muhim bo'lgan uning ma'lumotlar bazasini yaratishdan iborat.

Uchinchi bobda esa bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lgan tashkilot web saytini yaratish. Ya'ni bunda *Sanattour.uz* web xizmatlar saytini interfeys va foydalanuvchi yo'riqnomalaridan iboratdir.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishida olingan asosiy natijalar keltirilgan.

Adabiyotlar qismida bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ilovalarda SQL ma'lumotlar bazasi bilan aloqa o'rnatish va undan ma'lumotlarni chiqarish kodi, hamda axborot tizimining bir necha asosiy sahifasining Java Script kodi keltirilgan.

I BOB. O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta’kidlanishicha mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta’sir ko‘rsatadi. U mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta’minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko‘rsatadi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zaminni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi mumkin. Agarda davlat kasbiy tayyorgarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot - reklama ishlari va rasmiyatchilikni soddalashtirish kabilar bilan shug‘ullanmasa, u holda turizm kutilganidek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi[2].

Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasiga Sobiq Ittifoq davridanoq asos qo‘yilgan edi. Biroq, bu sohadan keladigan daromadlarning qayta taqsimlanish muammosi odatdagidek markaz tomonidan hal etilardi.

1985-89 - yillarda O‘zbekistondagi ichki va hududiy turizmning hajmi 1,4-1,6 million kishini, bunda chet ellik turistlarning miqdori atigi 130-180 ming kishini tashkil etardi xolos. Bu vaqtga kelib, ya’ni 1985 yilda Turkiyada 1,5 mln. 1992 - yilda esa 7 mln. 2003 yilda esa 11 mln. atrofida xorijiy turistlar tashrif buyurishdi. 1981 - yilda Vengriya 14,2 mln. turistlarni qabul qilgan bo‘lsa, 1991

yilga kelib bu miqdor 19,1 mlnga etdi. 1992 - yilda O‘zbekistonning turistik sohasi chet ellik turistlarga faqatgina 27 ta, 2008 - yilda esa 50 dan ortiq xizmat turini taklif etdi[3].

Turkiya, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 250-400 ni tashkil etadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan turizmni rivojlantirish ustuvor masalaga aylandi. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlanishini beshta bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich (o‘z ichiga 1992 - yilni oladi). Ushbu bosqich respublikamizda milliy turizmning dastlabki shakllantirilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda turizm infratuzilmasida yetakchi hisoblangan “Oz‘bekturizm” Milliy Kompaniyasiga asos solindi.

Ikkinchi bosqich (1993-1995 - yillar). Bunda turizmning milliy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu bosqich turistik xizmatlar ko‘rsatish hajmining oshib borishi bilan birgalikda yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish, xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, turizmning moddiy-texnika bazasini kengaytirish, boshqaruvning tashkiliy tizimini takomillashtirish va boshqa shu kabi vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muammolarni yuzaga keltirdiki, ularni faqatgina “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi doirasida hal etish imkoni bo‘lmay qoldi. Kompaniya turistik operatorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish maqsadida Germaniya (Frankfurt-Mayn), Angliya (London), AQSh (Nyu-York), Birlashgan Arab Amirliklari (Sharja) va Rossiya (Moskva) kabi mamlakatlarda o‘zining vakolatxonalarini ochdi.

Uchinchi bosqich (1995-1997 - yillar). Bunda turistik xizmatlar sohasida xususiylashtirish jarayoni boshlandi. 1996 yilning boshlarida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tizimidagi turistik obyektlar umumiy miqdorining 90% ga yaqini davlat tasarrufidan chiqarildi.

To‘rtinchi bosqich (o‘z ichiga 1998 - yilni oladi). Bu bosqichda eksport salohiyatini oshirish, valyuta, turistlar, investitsiyalarning barqaror oqimini ta‘minlash uchun imkoniyat yaratildi. Respublikada milliy turizmni jahon

andozlari darajasida shakllantirish, turizmga bilvosita tegishli bo'lgan xizmat ko'rsatish infratuzilmasini, xususan, turistlarni xorijdan kutib oladigan chegara, bojxona va aeroport xizmatlarini qayta shakllantirish boshlandi.

Beshinchi bosqich (1999 - yil maydan keyingi davrlar). Ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turizmni rivojlantirishning davlat dasturi to'g'risidagi» Farmoni nafaqat mamlakatdagi milliy va xalqaro turizmning tutgan o'rnini mustahkamlash uchun siyosiy asosni shakllantirdi, balki uning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash imkoniyatini berdi. Ushbu me'yoriy hujjat asosida turistik korxonalarga qo'shimcha boj imtiyozlari berildi. Bundan tashqari, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarida turizm bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. Ushbu yilning avgust oyida mamlakat Parlamentida "Turizm to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va buning natijasida turizm sohasini faoliyat ko'rsatishining huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi.

Shu bilan birga milliy turizm sohasini yanada takomillashtirish maqsadida 2006 yil 18 aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shunga asosan O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohalaridan biri bo'lgan turizmni yanada rivojlantirish va ushbu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularni milliy g'oya va merosimizni puxta biladigan qilib tayyorlash muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda [2,3].

1.1§. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishni o‘ziga xos xususiyatlari va istiqbollari.

O‘zbekiston Respublikasining turizmi sohasi jahon turistik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, BTT ekspertlarining bashorati unga to‘la taalluqlidir.

Tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillardagi barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorliklarga qaramay, mamlakat turizm sanoati davlat investitsiyalarisiz va dotatsiyalarisiz mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini oshirib borayotgan xalq xo‘jaligi tarmoqlaridan biridir. O‘zbekiston zamonaviy turizm sanoatini rivojlantirish uchun barcha zarur narsalarga ega. Buyuk Ipak Yo‘li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillarga muhim ahamiyat berilarkan O‘zbekiston Respublikasida turizm sanoatini rivojlantirish borasida bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda [3].

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi bosqichda tashqi va ichki muhitning tez o‘zgarib turishi munosabati bilan O‘zbekiston turizm bozorini rivojlantirishda ham bir qator muammolar mavjudligini ochiq tan olish zarur. Xususan, iqtisodiyotimizdagi ba’zi qiyinchiliklar mavjudligi, iqtisodiyotning umumiy ahvoli juda ham qoniqarli davrajada emasligi, buning natijasida aholi to‘lov qobiliyatining va turistik xizmatlarga talab darajasining pastligi, tarmoq moddiy bazasining yuqori darajada emasligi, xorijiy turizmning kuchli rivojlanmaganligi bu bozorga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

O‘z navbatida, bunday holat turizm tarmog‘iga valyuta mablag‘lari va davlat hamda mamlakatimiz va xorijiy investorlar tomonidan qo‘yiladigan investitsiyalarning hajmi kam bo‘lishiga olib keladi. Butun dunyoda turizm ancha katta foyda keltiradi va iqtisodiyotning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bu esa hozirgi kunda O‘zbekiston uchun ham muhim omildir.

Turizm bozori doimiy rivojlantirish va nazorat qilish asosida boshqarishga muhtoj bo'lib, bunda ilmiy va oqilona rejalashtirish tamoyillaridan foydalanish zarur. Shundagina turizm davlatga katta iqtisodiy foyda keltirishi, shuningdek, ekologik shart-sharoit va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarga yaxshi ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Turizm haqida»gi qonuni turizmni rivojlantirish bo'yicha milliy, mintaqaviy, mahalliy dasturlar ishlab chiqish, ushbu yuqori rentabelli iqtisodiyot tarmog'ining oyoqqa turishi uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratish asosida turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni nazarda tutadi [2,3].

So'nggi yillarda davlat tuzilmalarining turizmga nisbatan munosabati keskin o'zgarmoqda. Ular turizmga milliy iqtisodiyotning inqirozdan chiqishi, bozor hududini shakllantirish, davlat byudjetiga katta mablag'lar tushishining amaliy usulini, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, dam olish vaqtini mazmunli o'tkazish shaklini, xalqni mamlakatning tarixiy-madaniy qadriyatlariga jalb qilish usulini ko'rmoqdalar. Xorijiy mutaxassislar O'zbekiston Respublikasini uning nodir tabiiy resurslari va tarixiy-madaniy merosi tufayli turistik jihatdan istiqboli porloq malakatlar jumlasiga kiritadilar.

O'zbekistonning milliy-madaniy tiklanishi sharoitida ichki turizmning roli tobora ortib bormoqda. Shuning uchun O'zbekiston turistik kompaniyalarining rejalarida uning ijtimoiy, iqtisodiy va bilish funksiyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan, chunki bozor munosabatlariga o'tishda aynan ularga katta zarar etadi. Hozirgi kunda insonlar mavzui tarixiy-bilish va davolanish-sog'liqni tiklash marshrutlarini kam tanlaydilar. Ular savdo qilish va foyda olish uchun chet elga borishni ma'qul ko'radilar.

Yigirma birinchi asrda O'zbekiston Respublikasidagi turistik faoliyatning asosiy maqsadi mehmondo'stlik sanoatini yanada rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish, respublikamiz tabiiy va tarixiy-madaniy salohiyatidan samarali foydalanish asosida raqobatbardosh turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va ekologik

xavfsizligini ta'minlashdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish talab etiladi:

- turistik sohani moliyaviy-iqtisodiy tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy qilish, mablag' bilan ta'minlash manbalarini aniqlash, bu tarmoqdagi investitsiya siyosatining eng maqbul modelini yaratish;

- tarmoqni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish;

- mamlakat hududini ilmiy asoslangan holda tumanlarga bo'lish orqali turizmning tabiiy va tarixiy-madaniy salohiyatidan eng maqbul darajada foydalanishni ta'minlash.

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun tarmoq xodimlari O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi qonuniga va shu sohada chiqarilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanishlari kerak [3].

1.2§. Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalari o'rni.

Ma'lumki, azaldan sayyohlarni buyuk allomalar yashagan va ijod qilgan hamda ularning faoliyati natijasida bunyod etilgan qadimiy obidalarga boy bo'lgan maskanlar ohangrabodek o'ziga jalb qilib keladi. O'zbekiston ham shak-shubhasiz o'zining buyuk tarixi, me'moriy obidalari, betakror tabiati va xalqimiz urf-odatlarini, an'analarini bilan sayyohlarga o'zini ko'z-ko'z qila oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda turizm sohasi taraqqiyotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to'g'risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm va sohaning boshqa yo'nalishlarining rivojlanishi sayyohlarini to'laqonli axborot bilan ta'minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda [2,3].

Joriy yilning 28-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda «Turistik faoliyatning samarali axborot ta'minoti» mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Tadbirni o'tkazishdan maqsad turizm sohasining to'laqonli axborot bilan ta'minlanishini tashkil etish bo'yicha davlat siyosatining yo'nalishlarini tahlil etish, turizm bozori subyektlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, AKT imkoniyatlaridan foydalanishning istiqbolini hisobga olgan holda, turistik faoliyat qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda turizm sanoatini rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o'sishini ta'minlashda uning rolini oshirish va shu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tashkiliy sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur faoliyat shak-shubhasiz milliy turizm sohasini axborot bilan ta'minlash, turistik operatorlar

uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlari va kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori subyektlariga uyg'unlashgan holda ishlash, jumladan, xalqaro miqyosda mamlakatimizning haqiqiy imijini shakllantirish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu o'rinda, turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi samarali me'yoriy-huquqiy maydon, sohani yaqin va o'rta istiqbolda rivojlantirishning strategik rejalari bo'yicha qabul qilingan hujjatlar mazkur faoliyatning asosini tashkil etishi lozim. Milliy turizm tizimini rivojlantirishda mazkur sohada samarali axborot almashinuvini ta'minlash zarur. Bu o'z navbatida, iste'molchilarning mamlakatimiz haqidagi axborotdan erkin foydalanishlariga, turistik xizmatlarni taqdim etish sharoitlari, xususiyatlariga hamda ularning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi axborotlardan iborat bo'lmog'i va milliy qonunchiligimizga mazkur masalalarni kompleks va tizimli huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qoidalarining kiritilishini ta'minlash zarur [3].

Davra suhbatida turoperatorlar faoliyatiga turizm biznesining ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va qulaylashtirishga imkon beradigan zamonaviy kompyuter dasturlarini joriy etish zarurligi qayd etildi. Turizm xizmatlarini sotish va band qilish bo'yicha turoperatorlarning GPS-pozitsiyaga asoslangan xalqaro global axborot tizimlariga ulanishlari va lokal servislarni yaratishlarining muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekistonning turistik jozibadorligi oshishiga xizmat qiluvchi dolzarb axborot resurslarini, jumladan, O'zbekistonning noyob tarixi, o'tgan buyuk allomalari va olimlari, diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, an'analari haqida hujjatli filmlar va teleko'rsatuvlar yaratish va tarqatish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, turizm bozorini rivojlantirishda AKT bilan bog'liq bo'lgan quyidagi ishlarni amalga oshirish:

- axborot-targ'ibot kompaniyasini o'tkazish va turli OAVda O'zbekiston turizmi haqida ijtimoiy reklamalarni tarqatish;
- foto va videomateriallar bankini yaratish;

- Internet tarmog'ida mamlakatimizning turistik imkoniyatlari haqidagi markazlashtirilgan va alohida axborot resurslari hamda turistlar, turoperatorlar va turizm sohasining investorlari uchun axborot portallari sonini oshirish;
- tashqi va ichki turizmni rivojlantirishni axborot orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz va chet eldagi turistlar uchun axborot markazlari tarmog'ini yaratish;
- turistlarni o'ziga jalb etish markazlarida axborot punktlari tarmog'ini yaratish va boshqalar bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Xalqaro va ichki turizm sayyohlik sohasida kuchli xizmatdir. Sayyohlik sanoati quyidagi turdagi turoperatorlar va sayyohlik agentlariga asoslangan:

- kuponlar va ekskursiyalar shaklida sotiladigan sayyohlik safarlari;
 - sayyohlar (mehmonxonalar, lagerlar va boshqalar) uchun turar joy va ovqatlanish xizmatlari ko'rsatish,
 - mamlakatdagi harakatlari; turizm tadqiqotlari axborotlarini boshqarish;
- sayyohlik uchun talab qilinadigan mahsulotlar, turistik talablarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha korxonalar.

Turizmning boshqa sohalari sayyohlar uchun xizmat ko'rsatadilar, ular uchun turistik xizmatlar asosiy faoliyat emas (madaniyat, savdo va hokazo).

Turizm - axborot boy biznes. Ma'lumotni yig'ish, qayta ishlash, ishlatish va uzatish turizm sohasidagi kabi kundalik amaliyot uchun juda muhim bo'lgan boshqa sohalarda ham mavjud. Turizm sohasida xizmat ko'rsatishni sotish nuqtasida, masalan, iste'molchi yoki sanoat mahsuloti sifatida namoyish etish va ko'rib chiqish mumkin emas. Odatda oldindan va iste'mol joyidan sotib olinadi. Shunday qilib, bozordagi turizm deyarli butunlay tasvirlar, tushuntirishlar, aloqa vositalari va axborot uzatmalariga bog'liq. Turistik sanoat qurilishi boshqa har qanday iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga juda o'xshaydi. Sayohat agentligi - turoperator tomonidan tashkil etilgan ekskursiyalarni sotish uchun vositachilik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs [2].

O'tgan operator sayyohlik tashkilotlari hisoblanadi. Biroq, bitta xususiyat alohida ta'kidlanadi: ma'lumot turizm sohasida turli ishlab chiqaruvchilarni ushlab turuvchi bog'langan markazdir. Bu turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydigan axborot emas, balki axborot oqimlari; ular axborot oqimlari shaklida emas, balki xizmatlar va to'lovlar shaklida ham ishlaydi. Xizmatlar (masalan, mehmonxonalardagi kechalar turar joylari, avtomobillarni ijaraga berish, qatnovlar va samolyotlardagi o'rindiqlar) sayohat agentlariga yuborilmaydi, ular o'z navbatida iste'molchilarga sotilmaguncha ularni saqlamaydilar. Ushbu xizmatlarning mavjudligi, narxi va sifati haqida ma'lumot uzatiladi va foydalaniladi. Xuddi shunday, real to'lovlar sayohat agentlaridan sayohat yetkazib beruvchilarga berilmaydi va sayohat yetkazib beruvchilaridan sayohat agentlariga topshiriladi.

Sayyohlik sanoati sayyohlik operatorlari va sayyohlik safarlari bilan shug'ullanuvchi sayyohlik agentliklariga asoslanib, ularni kassa va turlar shaklida sotadi; sayyohlar (mehmonxonalar, lagerlar, va hokazo) uchun turar-joy va ovqatlanish xizmatlari, mamlakat bo'ylab ularning harakatlari, shuningdek, davlat organlari, axborot, turizmni o'rganish bo'yicha reklamalar va u uchun kadrlar tayyorlash, turistik talablarni ishlab chiqaruvchi va sotadigan korxonalar. Turizmning boshqa sohalari sayyohlar uchun xizmat ko'rsatadilar, ular uchun turistik xizmatlar asosiy faoliyat emas (madaniyat, savdo va hokazo).

Turizm - axborotga boy faoliyat. Ma'lumotni yig'ish, qayta ishlash, ishlatish va uzatish turizm sohasidagi kabi kundalik amaliyot uchun juda muhim bo'lgan boshqa sohalarda ham mavjud. Turizm sohasida xizmat ko'rsatishni sotish nuqtasida, masalan, iste'molchi yoki sanoat mahsuloti sifatida namoyish etish va ko'rib chiqish mumkin emas. Odatda oldindan va iste'mol joyidan sotib olinadi. Shunday qilib, bozordagi turizm deyarli butunlay tasvirlar, tushuntirishlar, aloqa vositalari va axborot uzatmalariga bog'liq.

Sayohat agentligi - turoperator tomonidan tashkil etilgan ekskursiyalarni sotish uchun vositachilik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. O'tgan operator sayyohlik tashkilotlari hisoblanadi.

Biroq, bitta xususiyat alohida ta'kidlanadi: ma'lumot turizm sohasida turli ishlab chiqaruvchilarni ushlab turuvchi bog'langan markazdir. Bu turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydigan axborot emas, balki axborot oqimlari; ular nafaqat axborot oqimlari shaklida, balki xizmatlar va to'lovlar shaklida ham ishlaydi.

Mehmonxonalarda kechki turar joylar, avtoullovlar, paketli turlar va samolyotlardagi o'rindiqlar kabi xizmatlar, xaridorlarga sotilmaguncha ularni ushlab turadigan sayohat agentlariga yuborilmaydi. Ushbu xizmatlarning mavjudligi, narxi va sifati haqida ma'lumot uzatiladi va foydalaniladi. Xuddi shunday, real to'lovlar sayohat agentlaridan sayohat yetkazib beruvchilarga berilmaydi va sayohat yetkazib beruvchilaridan sayohat agentlariga topshiriladi. To'lovlar va tushumlar haqidagi ma'lumot aslida tarjima qilingan.

Turizmning uchta xususiyati mavjud. Birinchidan, bu xizmatlarning xilma-xilligi va integratsiyalashuvi. Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi jihatidan ham murakkab xizmat. Nihoyat, bu axborot boy xizmatdir. Shuning uchun ham xalqaro, ham ichki turistik sayyohlik axborot texnologiyalarining tobora o'sib borayotgan sohasi hisoblanadi.

Turizmda ishlatiladigan axborot texnologiyalari tizimidan kompyuterni bronlash tizimi, telekonferentsiya tizimi, video tizimlar, kompyuterlar, boshqaruv axborot tizimlari, elektron aviakompaniyalarning axborot tizimlari, elektron pul o'tkazmalari, telefon tarmoqlari, mobil aloqa vositalari va boshqalar mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu texnologiya tizimi sayohatchilar, mehmonxonalar yoki aviakompaniyalar tomonidan alohida-alohida joylashtirilmagan, biroq ularning hammasi. Bundan tashqari, har bir turizm segmenti tomonidan axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanish boshqa barcha qismlarga ham tegishli.

Misol uchun, ichki mehmonxona boshqaruv tizimlari global kompyuter tarmoqlariga ulanishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, mehmonxona rezervasyon tizimlari bilan aloqa qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada, biz turizm sohasida tarqatiladigan integratsiyalashgan axborot texnologiyalari tizimi bilan shug'ullanmoqdamiz. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, turistik industriyada

kompyuterlar emas, balki telefon emas, video terminallar ham - bu erda o'zaro bog'liq kompyuter va aloqa texnologiyalari tizimi mavjud [2,3].

Bundan tashqari, turizm sohasining individual komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq - chunki ko'pchilik sayyohlar ishlab chiqaruvchilari vertikal yoki gorizontal ravishda bir-birining faoliyatida ishtirok etadilar. Bularning barchasi bizni sayyohlikni yuqori darajali integratsiya xizmat sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, bu esa uni tashkilot va boshqaruvda axborot texnologiyalaridan foydalanishga ko'proq moyil qiladi.

Turistik tashkilotlarni boshqarishda axborot texnologiyalari
Sayyohlik provayderlari xalqaro aloqalarni to'g'ridan-to'g'ri sun'iy yo'ldosh orqali tarqatish, mobil aloqadan telekonferentsiya orqali biznes yuritishni ta'minlaydigan bir qator kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi (masalan, dunyoning istalgan qismiga samolyotdan qo'ng'iroq qilish qobiliyati). Turar joy haqida ma'lumot olish uchun uning o'ziga xos xususiyatlari ham turli xil video asboblarni talab qiladi. AT-dan foydalanish natijasida turizm xizmatlarining xavfsizligi va sifati ortib boradi va ularning aniq tarkiblari o'zgarmaydi.

Axborot texnologiyalari aviakompaniya faoliyatini ta'minlaydi. Havo operatsiyalarini tashkillashtirish, boshqarishni va nazorat qilish jarayonida elektron tizimlar marshrutni rejalashtirish va rejalashtirish, monitoring va parvozlar parvozlarini tahlil qilish, kadrlar boshqaruvi / buxgalteriya hisobi va rejalashtirish. Ular, masalan, xabarlarini uzatish va jo'natish tizimi, havo tashish uchun ma'lumot yig'ish va uzatish uchun yo'ldoshli tizim, inertial navigatsiya tizimlari kiradi.

Zamonaviy sharoitda mehmonxonada yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishni ta'minlash yangi texnologiyalardan foydalanmasdan amalga oshirilmaydi. Yangi texnologiya ko'plab mehmonxona jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron zahiralash, xodimlarni qisqartirish bilan bir vaqtda xizmat sifatini oshirishga yordam beradigan texnologiyalarni joriy etishni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan tizimlar hosildorlikni oshirish, yuqori menedjerlar o'rtasida bilim darajasini oshirishga qaratilgan. Kasb-hunarlarini birlashtiradigan tobora ko'payib borayapti,

bu esa kadrlarni yanada tayanchga o'rgatish, ularni bir nechta kasb-hunarlarda o'qitish uchun ortib borayotgan talabni talab qiladi.

Kompyuterlar mehmonxonalarning markaziy axborot markazlarida keng qo'llaniladi. Ularning yordami bilan rezervasyonlarni boshqarish, mehmonlarni hisobga olish / xonalarni taqsimlash, inventarizatsiyani hisobga olish va oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish amalga oshiriladi.

II BOB. ZAMONAVIY WEB SAYT YARATISHNING ZAMONAVIY PLATFORMALARI

Axborot texnologiyalari va Internet rivoj topib borayotgan bugungi kunda ulardagi axborot hajmi ham axborotlarni boshqarish strukturalari ham ancha murakkablashdi. Butun dunyo “axborot omboriga” aylangan internetda har soniyada minglab yangi web-sahifalar va web-saytlar paydo bo`lmoqda.

Har bir web-sayt o`zining ma`lumotlar hajmi, tuzilish strukturasi va dizayniga egadir. Bunday saytlarni tuzishda turli usullar mavjud bo`lib ular o`zlarining imkoniyatlari va qulayliklari bilan boshqalaridan ajralib turadi. Bugungi kunda web-saytlarni tuzish va kontentlarni boshqarishda ikki usulni alohida takidlab o`tish mumkin. Ulardan biri hozirda judayam ommalashgan Portal texnologiyasi, ikkinchi texnologiya bu web-dizayn sohasidagi yangi va ancha istiqbolli texnologiyadir.

Bugungi kunda web-saytlarni tuzishda ananaviy va keng tarqalgan texnologiya bu – portal texnologiyasidir. Bu texnologiyani rivojlanishi uchun juda ko`p izlanishlar amalga oshirilgan. Bu izlanishlar natijasida portal texnologiyasining keng yoyilishiga erishildi. Shunga qaramay web-sayt yaratishning portal modeli bir qancha kamchiliklarga ega.

Portal texnologiyasida web-sayt tuzish va uni internetga joylashtirish uchun ko`p vaqt va mablag` talab etiladi. Masalan, biror tashkilotning web-saytini tuzish uchun ushbu sohada yetarlicha bilimga ega bo`lgan mutaxassisga murojaat etish kerak. U web-saytni ma`lum muddatda tayyor holatga keltiradi, uni internetga joylashtiradi, bu orada ancha vaqt, mehnat va mablag` sarflanadi. Saytni internetga joylashtirgandan keyin uni boshqaruvchi administrator kerak bo`ladi, buning uchun yangi ishchi kuchi kerak bo`ladi, agar sayt judayam murakkab bo`lsa bu ishlarni bir shaxs emas, balki guruh bo`lib amalga oshiriladi. Bu guruhning har bir a`zosini oylik maosh bilan ta`minlash kerak bo`ladi [4].

Portal texnologiyada tuzilgan web-saytlarni o`zgartirish ham murakkab jarayon hisoblanadi, bundan tashqari ushbu saytdagi ma`lumotlarni yangilab turish zarur.

2.1§. Web-sayt yaratish bosqichlari

Web-saytlarni yaratish – bir nechta ketma-ketlikdan iborat bo'lgan jarayon. Xaridor sayt yaratilishining muayyan bosqichlari uchun har qanday rassomni tanlashi mumkin. Biroq, ayrim freelancerlar yoki studiyalar o'z xizmatlarining to'liq to'plamini taklif qilishadi. Eng yaxshi narsa faqat mijoz uchun. Siz barcha ishni bir vaqtning o'zida to'liq to'lay olasiz va nihoyat tayyor, ishlaydigan saytni olishingiz mumkin. Va siz ishni qismlarga ajratishingiz mumkin, ya'ni bir kishi tartibni, ikkinchisi esa tarmoqdagi uchinchi joyni, to'rtinchi aylanishni qiladi.

Yaratish ishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- tayyorgarlik;
- qoidani ishlab chiqish;
- joylashtirish;
- dasturlash;
- kontentni to'ldirish;
- saytni reklama qilish;
- Saytni boshqarish (qo'llab-quvvatlash).

Har bir elementga barcha mas'uliyat bilan murojaat qilish kerak, chunki sayt sifati va ishtiroki unga bog'liq bo'ladi. Keling, bu bosqichlarni batafsil ko'rib chiqaylik:

1. Tayyorlov bosqichi.

Bu bosqichda kelajakdagi saytning asosiy g'oyasini shakllantirish kerak.

- Saytning qaysi maqsadga egaligi ma'lum bo'lishi mumkin: ta'lim, o'yin-kulgi, onlayn-do'kon, har qanday xizmatni sotish, biznes-sayt yoki saytdagi daromad.
- Keyin maqsadli auditoriyani (jinsi, yoshi, ta'limi) belgilaydi, ya'ni bu sayt kimga tegishli bo'ladi.
- Shuningdek, tashrif buyuruvchilarning qanday ma'lumot kutishini bilib olish kerak, bu saytdagi kontentni (matn axborotini) aniqlashga yordam beradi.

- Keyinchalik texnik tomondan qaror qabul qilishingiz kerak. O'rtacha tarmoq ulanishini va dasturiy ta'minotni hisobga olish muhim.
- Navigatsiya muhim element. Har bir narsa foydalanuvchi qaerda va nimani anglatadi, shuning uchun foydalanuvchi kerakli ma'lumotni qidirishda harakat qilmaydi, lekin darhol saytga yo'naltiriladi.

Barcha kontentni o'ylab ko'rish, materiallarni yig'ish, navigatsiya bilan tanishish uchun siz qalam bilan qog'ozni olishingiz mumkin va saytda rejalashtirilgan barcha narsalar haqida fikrlarni yozishingiz mumkin. Xuddi shu bosqichda texnik topshiriq tayyorlanadi.

2. Qoidani ishlab chiqish. Sayt vazifalarini qo'ygandan so'ng keyingi bosqich - tartibni ishlab chiqish. TK nuqtalariga odaklanilmasi, kelajakda bir shablonni yoki istalgan variantni tanlashingiz mumkin bo'lgan modellarni ishlab chiqardi. Ushbu bosqichda butun dizayn qanday ko'rinishini, qaysi grafik elementlardan foydalanilishini, shuningdek, sahifalar qanday tuzilishga ega bo'lishini va qanday rangli echimlar mavjudligini aniqlaydi.

So'ngra PSD formatida (barcha qatlamlar bilan) va rasm shaklida taqdim etiladi, kelajakda ishni tartibga soluvchi dizaynga o'tkazish uchun har qanday formatni (JPEG, PNG) qo'llashingiz mumkin. Web-saytlarni ishlab chiqish odatda bir necha kundan bir necha haftagacha davom etadi, juda murakkab ish bir oyda amalga oshirilishi mumkin.

3. Joylashtirish. Tayyorlangan tartibni qismlarga ajratish va keyin saytga biriktirish uchun sizga koder kerak bo'ladi. Tartib qanday? Web-sahifalar uchun HTML va CSS kodlarini yozish jarayonidir. Har bir kod, sahifadagi barcha elementlarning kerak bo'lganda joylashtirilishini ta'minlash uchun javobgardir. Tarmoqli belgilar brauzerlarning barcha xususiyatlarini bilishi kerak, chunki har bir brauzer o'z tartibini talab qiladi.

Sayt yaratishda tartib turlari:

- Bloklash. Blokning tuzilishining afzalliklari shundaki, u saytning barcha elementlarini turli xil qurilmalarda (masalan, mobil telefonlarda) to'g'ri aks ettiradi. Yilni kod, barcha elementlar kamroq, ya'ni sahifani tezda yuklab

qo'yadi. Kamchiliklar orasida turli brauzerlardan foydalanilsa, tartibni almashtirish mumkin.

- Tabulyatsion. Stol tartibida siz ustunlar yaratishingiz mumkin, brauzerlarda jadvallar deyarli bir xil ko'rinadi. Kamchiliklar: bunday saytni indeksatsiya qilish juda sekin, sahifalar uzoq vaqt davomida yuklanadi va ushbu yozuvning kodi juda katta.

4. Dasturlash. Ushbu bosqichda sayt ma'muriyati tizimi mexanizmlarini ishlab chiqish jarayoni davom etmoqda, bu esa kelgusida kompaniya xodimlariga saytdagi ma'lumotlarni o'zgartirish / yangilash imkonini beradi. Ya'ni saytning ishchi versiyasi yaratilmoqda, matn va grafik materiallarni to'ldirishga tayyor.

Dasturlash tillari algoritmlarni tavsiflash uchun mo'ljallangan ishora tizimidir. Eng mashhur dasturlash tillari: Java, C, C ++, Delphi, BASIC, PHP, Perl, Ruby va boshqalar.

Bularning barchasidan keyin sayt webda nashr etiladi.




2.1.1-rasm.

5. Saytni kontent bilan to'ldirish. Sayt samaradorligi kontent tushunchasi bilan bog'liq, ya'ni matn va grafik ma'lumot. Ba'zida mijozning kerakli materiallarni yozish uchun freelancerlarga murojaat qilishi kerak bo'lsa, uni to'ldirish uchun materiallar bor.

Odatda, saytlar SEO-copywriting-dan foydalanishadi, bu sayt uchun matn yaratishning bu usuli, bu nafaqat foydalanuvchining idrokidan tashqari, balki qidiruv tizimida reklama qilish uchun ham zarurdir. Bunday ishlar o'zlarining narxlarini talab qilinadigan materiallar hajmiga asoslanadi.

6. Saytni reklama qilish. To'liq tayyorlangan va axborot saytlari bilan to'lgan foydalanuvchilarning oqimi kafolatlanmaydi. Saytingizga tashrif buyurishingiz uchun, avvalo, uni e'lon qilishingiz kerak. Foydalanuvchilarning aksariyati web-saytlarga qidiruv tizimlariga kirishadi, shuning uchun resursning ommaviyligi qidiruv natijalarining reytingida o'z o'rniga bog'liq bo'ladi [5].

Saytdagi trafikni oshirish uchun, avvalo, qidiruv tizimida ro'yxatdan o'tish kerak, siz ham bog'lanishlar almashinuvi yoki bannerlarni yaratishingiz mumkin. O'z-o'zidan bu haqda bezovtalanmaslik uchun ular odatda o'z sohasidagi mutaxassislar bo'lgan bir xil freelancerlardan reklama qilishni buyuradilar, ular saytni katalog bazalari orqali boshqaradilar va kerakli narsalarni qiladilar.




2.1.2-rasm.

7. Saytni qo'llab-quvvatlash. Bu yerda sayt materiallari va bo'limlari qanday qo'shish yoki tahrir qilishni ko'rib chiqishingiz kerak. Hech qanday yangiliklar bo'lmasligi mumkin bo'lgan maqolalar arxivini yaratishingiz kerak bo'lishi mumkin. Ushbu maqsadlar uchun yangilanishlarning chastotasini kuzatib boradigan, dolzarb ma'lumotlarni taqdim etadigan va eskisini tozalash uchun ishlaydigan xodim ajratiladi.

IDEdan foydalanib web-sayt yaratish jarayoni

Bu erda jarayonning tezkorligi, web-saytni qanday qilib yaratishingiz mumkin, bu sizning asosiy web-tillaringizni va yuqorida keltirilgan web-saytlarni bilib olganingizni tasavvur qilasiz.

1-qadam: Mahalliy ish muhitini yaratish



2.1.2-rasm

Sublinavtlar matnli ishchi apparati ekrani.

Saytdagi manba fayllarini yaratish va tashkil qilish uchun yaxshi mahalliy ish muhiti muhimdir. IDE (Integrated Development Environment) tizimini o'rnatish orqali hisoblash qurilmangizda web rivojlantirish muhiti yaratishingiz mumkin. IDE, asosan, matn muharriri, avtomatlashtirish va tuzatuvchidan iborat.

Yuqori matnli atomlar HTML, CSS, JS, PHP, Python va shunga o'xshash web-tillarni qo'llab-quvvatlaydigan asosiy yadro web-ishlab chiquvchilaridir.

Boshqa tomondan, Adobe Dreamweaver kabi bir qancha boshqa funktsiyalarni taklif qiluvchi rivojlangan IDElar mavjud (masalan: serverga ulanish, FTP).

2-qadam: Adobe Photoshopdan foydalanib web-saytingizni rejalashtirish va loyihalash. Sayt strukturasini va navigatsiya tizimini rejalashtirish katta ahamiyatga ega. Birinchidan, kontentingizni qanday topshirishni bilishingiz kerak. Qanday navigatsiya menyuslari, qancha kolon yoki kontent joylari, qancha rasmni qo'shishni va qaerga joylashtirmoqni rejalashtirish.

Eng yaxshi usul Adobe Photoshop-ni ochish va web-sahifalaringizning qo'pol rasmini yaratishdir. Turli sahifalar, masalan, bosh sahifa, sahifa, kontakt sahifasi, xizmat sahifasi va boshqalar uchun turli shriftlar yaratishingiz kerak bo'lishi mumkin.



2.1.3-rasm.

Misollar - saytimizda 2016-yil dekabrda yangilanib turadigan rejalar.


3-qadam: Dizaynni HTML va CSS bilan kodlash. Adobe Photoshop-da web-sahifalaringiz uchun qo'pol loyihalarni amalga oshirganingizdan so'ng, siz manba kodlarini yozishni boshlashingiz mumkin.

Bu eng oson ish. O'zingiz kiritmoqchi bo'lgan web-elementlar uchun HTML belgilarini yarating va ularni sizning dizayningizga muvofiq tarzda uslublar uchun CSS-dan foydalaning.

4-qadam: JavaScript va jQuery bilan dinamik qiling. Faqat HTML va CSS saytlari bu kunlarda mavjud emas, chunki foydalanuvchi interfeyslari bilan o'zaro ishlash HTML yoki CSS yordamida boshqarilishi mumkin emas.

Jadvallar, kirishlar, slayderlar, menyular yoki kerakli joylarda foydalanuvchi faoliyatini boshqarish uchun javascript va ehtimol, rivojlangan jQuery kutubxonangiz kabi skript tillaridan foydalanishingiz mumkin.

5-qadam: Fayllarni serverga FTP mijozi orqali yuklash.




2.1.4-rasm

Oxirgi qadam barcha manba fayllarini web-serverga yuklashdir. Jarayonning eng yaxshi va eng qulay usuli - FTP mijosi.

Wixdan foydalanib, asta-sekin web-saytlarni yaratish jarayoni

1-qadam: Wix uchun ro'yxatdan o'ting. 5ta bonusli rejalar va 1 bepul rejalar mavjud (narxi 0 dan \$ 24.50 / mo gacha). Web-saytni muvaffaqiyatli yaratganingizdan so'ng, yangilanish opsiyalarini ko'rasiz.

Bu erda Wix rejaları va narxlar haqida ma'lumot olishingiz mumkin.




2.1.5-rasm.

